V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

BOXONOV ZAFAR SAYDIMAXMUDOVICH

BIOLOGIYADA RATSIONAL AKSLANTIRISHLARNING DINAMIK SISTEMALARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2023 yil

UDK: 517.98

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

BOXONOV ZAFAR SAYDIMAXMUDOVICH

BIOLOGIYADA RATSIONAL AKSLANTIRISHLARNING DINAMIK SISTEMALARI

01.01.01 – Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT - 2023 yil

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.PhD/FM907 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (https://kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rozikov Utkir Abdulloevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abdullaev Rustambay Zayirovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Absalamov Akmal Tolliboyevich fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil 26-dekabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (173-raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 7-dekabr kuni tarqatildi.
(2023-yil 7-dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

A.A. A'zamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash rais o'rinbosari,
f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U. Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda ratsional dinamik sistemalarni tadqiq qilish kabi masalalariga keltiriladi. Dinamik sistemalar nazariyasining ahamiyati sistemaning hozirgi holatini bilgan holda kelajakda qanday holatlar kelib chiqishini baholashdan iborat bo'lib, mexanika, fizika, biologiya, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa masalalarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa insonlarga murakkab sistemalarni tushunish va optimal qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Ta'kidlash joizki, dinamik sistemalar odatda ayirmali tenglamalar, differensial tenglamalar hamda differensial-ayirmali tenglamalar orqali ifodalanadi. Biologiya va ekologiya sohalaridagi tadqiqotlarning asosiy obyektlaridan biri ratsional evolyutsion operatorlarning dinamik sistemalari hisoblanadi. Shuningdek, matematik biologiya masalalarida populyatsiyaning evolyutsiyasini tadqiq qilishga ratsional evolyutsion operatorlaridan hosil qilingan dinamik sistemalar bilan bog'liq natijalar asos sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, ratsional akslantirishlarning dinamik sistemalarini tadqiq etish dinamik sistemalar nazariyasidagi muhim va dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtda ratsional dinamik sistemalar nazariyasi ko'plab amaliy masalalarning xarakterini tushunishda, tahlil qilishda hamda optimal yechimini topishda asosiy vosita sifatida qo'llanilmoqda. Jumladan, dinamik sistemalar nazariyasi uchun trayektoriyaning limit nuqtalar to'plamini tavsiflash, qo'zg'almas va davriy nuqtalarning mavjudligini hamda ularning turini aniqlash, invariant to'plamlarni topish, bifurkatsiya sodir bo'lishini tekshirish, sistemaning turg'unligi yoki xaotik xarakterga egaligini aniqlash kabi muammolar ko'plab amaliy masalalarni tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda. Bu borada chuqur biologik tadqiqotlarga asoslangan optimal matematik modellarni yaratish hamda ularni matematik biologiyaning populyatsiya masalalariga qo'llash maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo'lgan tibbiyot, biologiya, matematika va fizika fanlariga e'tibor kuchaytirildi. Jumladan, oxirgi yillarda iqtisodiy, fizik va biologik sistemalarda keng tatbiqiga ega bo'lgan ratsional dinamik sistemalar nazariyasini rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Diskret vaqtli uzluksiz ratsional operatorlar dinamikasi bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi. "Funksional analiz, matematik fizika va statistik fizika" fanlarining ustivor yo'nalishlari bo'yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi[1]. Shunday qilib ilmiy natijalarni fanning turdosh sohalarida qo'llash, qaror ijrosini ta'minlash maqsadida biologiyada ratsional aklantirishlarning dinamik sistemalarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqotlar muassasalari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 292-sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustivor yo’nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. So‘ngi yillarda tabiiy fanlardagi ko‘pgina muammolarning matematik modellarini tushunish diskret vaqtli dinamik sistemalarni tadqiq etishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otdi. XIX asr oxirida olimlar tirik organizmlar populyatsiyalarining o‘sish va kamayish dinamikasini tadqiq qilish uchun populyatsiyani modellashtirish usullarini ishlab chiqa boshladilar. Ingliz olimi Tomas Maltus insoniyat taqdiri haqida fikr yuritar ekan, birinchilardan bo‘lib populyatsiyalar geometrik o‘sib borishini eng sodda model tuzish orqali asoslab berdi. Belgiyalik matematik Per Fransua Verxulst 1838 yilda populyatsiya o‘sishining muhim modellaridan biri bo‘lgan logistik modelni ishlab chiqdi. Sayyoramizda ozuqa resurslarining cheklanganligi sababli XX asrlarga kelib populyatsiyani modellashtirishga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. Shuningdek, populyatsiya modellari parazitlar, viruslar va kasalliklarning tarqalishini nazorat qilish uchun ham qo‘llanila boshlandi.

Muayyan populyatsiya uchun asosiy matematik muammo populyatsiya evolyutsiyasini, ya’ni holatlarning vaqtga bog‘liq dinamikasini tavsiflashdir. Bu kabi muammolarni hal qilishda foydalaniladigan matematik usullar funksional tahlillar, differensial tenglamalar, ehtimollar nazariyasi, stoxastik jarayonlar hamda dinamik sistemalar nazariyasiga asoslanadi. Populyatsiya dinamikasini tavsiflash uchun nochiziqli (xususan, ratsional va kvadratik) evolyutsion operatorlari O. Reiersol, Y.I. Lyubich, X. Kesten va boshqalar tomonidan kiritilgan. Ko‘pgina jarayonlarni matematik modellashtirish ratsional diskret vaqtli dinamik sistemalarga olib kelinadi. Ratsional diskret vaqtli dinamik sistemalar dinamik sistemalarning muhim sinfi hisoblanib, so‘ngi yillarda M. Kulenovich, O. Merino, E. Pilav, D. Clark, C.D. Lynd, E. Camouzis, A. Gilbert, M. Heissan, G. Ladas, E. Drymonis, E.A. Grove, Y. Kostrov, M. A. Radin, S. Schultz kabi matematiklar tomonidan olib borilgan izlanishlar ratsional dinamik sistema nazariyasini ishlab chiqishda muhim o‘rin egallaydi.

2020 yilda O‘.A. Roziqov tomonidan yozilgan “Populyatsiya dinamikasi: algebraik va ehtimolli yondoshuv” nomli kitobda populyatsiya modellari keltirilgan. Shuningdek, biologik modellarning bir nechta dinamik sistemalari (J.M.Kasas, M.Ladra, O‘.Roziqov, B.Mamurov, S.Xudayarovlar tomonidan tadqiq qilingan), jinsga bog‘liq populyatsiyaning dinamikasi (Yu.I.Lyubich, U.Jamilov, O‘.Roziqov tomonidan tekshirilgan), chivin populyatsiyasining dinamik sistemasi va evolyutsion algebrasi (M.Velasko, R.Varro, O‘.Roziqov) hamda okean ekosistemalari (S. Shoyimardonov, O‘.Roziqov) berilgan. Ratsional diskret vaqtli dinamik sistemalar juda oddiy ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, umumiy nazariyaning mavjud emasligi tufayli operatorlar dinamikasini to‘liq tahlil qilishda qiyinchilik tug‘iladi va har bir operatorni o‘rganish tadqiqotchidan alohida ilmiy yondashuv talab etadi. Hozirgi kunga kelib, ratsional operatorlar dinamik sistemalari bo‘yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramay, ko‘plab ratsional operatorlar orqali hosil qilingan dinamik sistemalar uchun trayektoriyaning limit nuqtalari to‘plamini to‘la tavsifi olinmaganligini ta’kidlash joiz.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tekshirish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining OT-F4-87 raqamli “Evklid va psevdo-Evklid fazolaridagi egri chiziqlar va sirtlarning global invariantlari nazariyasi va uning mexanikaga tatbiqlari” (2017-2020 yy), OT-F4-82 raqamli “Operatorlar va noassotsiativ algebralarda lokal differensiallash va avtomorfizmlar, nochiziqli dinamik sistemalarda faza almashishlar va xaos” (2017-2020 yy), YoFA-Ftex-2018-78 “Amenabel bo‘lmagan graflarda dinamik va termodinamik sistemalar” (2018-2019 yy) mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi chivin populyatsiyasi va jinsga bog‘liq bo‘lgan biologik sistemalarning evolyutsiya operatori sifatida qaraladigan aniq ratsional operatorlardan hosil qilingan diskret vaqtli dinamik sistemalarda ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta uchun trayektoriyaning limit nuqtalari to‘plamini to‘la tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chivin populyatsiyasi va jinsga bog‘liq bo‘lgan biologik sistemlarning turg‘un holatini tavsiflovchi evolyutsion operatorlarning qo‘zg‘almas nuqtalari topish;

davriy nuqtalar to‘plamini tavsiflash va invariant to‘plamlarni aniqlash;

jinsga bog‘liq bo‘lgan populyatsiyaning evolyutsion operatorlaridan hosil qilingan trayektoriyalarning limit nuqtalarini tadqiq qilish;

yovvoyi chivin populyatsiyasidan hosil qilingan operator uchun trayektoriyalarning limit nuqtalari to‘plamini tavsiflash;

sog‘lom, kasallangan va tuzalganlarni aks ettiruvchi epidemik modellarining diskret vaqtli dinamikasini tavsiflash va Covid-19 virusi tarqalishiga tatbiq etish.

Tadqiqot ob’ekti: jinsga bog‘liq bo‘lgan populyatsiyaning evolyutsion operatorlari, yovvoyi chivin populyatsiyasining operatori, sog‘lom, kasallangan va tuzalganlarni aks ettiruvchi epidemik modellari.

Tadqiqot predmeti. Matematik analiz, funksional analiz, nochiziqli diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida matematik analiz, funksional analiz, chiziqli algebra va diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikki oʻlchamli va parametrlarning baʼzi shartlarida yuqori oʻlchamli kvadratik operator yordamida boshqariladigan jinsga bogʻliq evolyutsion operator uchun trayektoriyaning limit nuqtalari toʻplami toʻla tavsiflangan;

yovvoyi chivin populyatsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan modelning diskret vaqtli dinamik sistemasiga mos evolyutsion operatorning barcha qoʻzgʻalmas nuqtalarini topilgan va qoʻzgʻalmas nuqtalarning tiplari aniqlangan;

parametrlarning alohida holatlari uchun mos keladigan modelning diskret vaqtli dinamikasi regulyar ekanligi isbotlangan hamda natijalarga biologik talqinlar berilgan;

sogʻlom, kasallangan va tuzalganlarni aks ettiruvchi epidemik modellarining diskret vaqtli dinamikasi tavsiflangan va uning Covid-19 virusi tarqalishiga qoʻllanishi koʻrsatilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Olingan natijalar va dissertatsiyada qoʻllanilgan usullar oliy oʻquv yurtlarida magistratura talabalari, tayanch doktorantlar uchun oʻquv kurs sifatida oʻqitilishi mumkin. Shuningdek, matematik biologiyadagi yovvoyi chivin populyatsiyasini nazorat qilish masalalarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarida matematik va funksional analiz usullari, diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasidan foydalanilgan. Olingan natijalar qatʼiy matematik mulohazalarga asoslanib isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ratsional akslantirishlar dinamikasida trayektoriya limit nuqtalari toʻplamining tavsifidan nochiziqli diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasida musbat orbitalarning topologik xossalarini tekshrishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yovvoyi chivin populyatsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan modelning diskret vaqtli dinamik sistemasiga mos evolyutsion operatorning qoʻzgʻalmas nuqtalari toʻplamining tavsifi baʼzi nochiziqli modellar uchun trayektoriyaning limit nuqtalari toʻplamini tavsiflash imkonini bergani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Biologiyada ratsional akslantirishlarning dinamik sistemalari boʻyicha olingan natija asosida:

yovvoyi chivin populyatsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan modelning diskret vaqtli dinamik sistemasiga mos evolyutsion operatorning qoʻzgʻalmas nuqtalari toʻplamining tavsifidan G00003447 raqamli “Kvant genetik algebralari va ularning tatbiqlari” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida standart simpleksda aniqlangan bir nechta kvadratik stohastik operatorlar tomonidan hosil qilingan dinamik sistemalarni tekshirish uchun foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universitetining 2023 yil 11-oktyabrdagi ma'lumotnomasi, BAA). Ilmiy natijaning qo'llanilishi nochiziqli modellar uchun trayektoriyaning limit nuqtalari to'plamini tavsiflash imkonini bergan;

ikki o'lchamli va parametrlarning ba'zi shartlarida yuqori o'lchamli kvadratik operator yordamida boshqariladigan jinsga bog'liq evolyutsion operator uchun trayektoriyaning limit nuqtalari to'plarini tavsiflashda qo'llangan usuldan FRGS 17-027-0593 raqamli "Xaos faza almashishini keltirib chiqaradi: p-adik Gibbs o'lchovlarining yangi sinfini topishda p-adik dinamik sistema usuli" mavzusidagi xorijiy grant loyihasida nochiziqli dinamik sistemalarni tadqiq qilishda foydalanilgan (Malayziya Xalqaro Islom universitetining 2023 yil 16-oktyabrdagi ma'lumotnomasi, Malayziya). Ilmiy natijaning qo'llanilishi nochiziqli operatorlarning davriy nuqtalarini aniqlash hamda trayektoriyalarni tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi xorijiy va 1 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, o'n bitta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 103 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Jinsga bo'g'liq populyatsiyaning diskret-vaqt dinamik sistemalari va trayektoriyalari**" deb nomlanuvchi birinchi bobida dissertatsiya mavzusini to'la yoritish uchun zarur bo'lgan asosiy ta'riflar va muhim tushunchalar keltirilgan. Shuningdek, jinsga bog'liq evolyutsion operatorining diskret vaqtli dinamikasi ikki o'lchamli holida to'liq tadqiq qilingan. Bundan tashqari parametrlarning ba'zi shartlari uchun yuqori o'lchamli evolyutsion operator trayektoriyalarining xarakteri tadqiq qilingan.

Diskret vaqtli dinamik sistemani aniqlash uchun $f: X \to X, \quad X \subseteq \mathbb{R}$ funksiyani qaraylik. f funksiyaning o'z-o'ziga n marta kompozitsiyasi $f^n(x)$ kabi belgilanadi, ya'ni

$$f^n(x) = \underbrace{f(f(f...(f}_{n\ times}(x))...).$$

1**-ta'rif.** *Berilgan $x_0 \in X$ va $f: X \to X$ diskret vaqtli dinamik sistema uchun*

$$x_0,\ x_1 = f(x_0),\ x_2 = f^2(x_0),\ x_3 = f^3(x_0),\ \dots \qquad (1)$$

nuqtalar ketma-ketligi x_0 nuqtaning musbat orbitasi yoki musbat trayektoriyasi deyiladi.

2**-ta'rif.** *Agar $x \in X$ nuqta $f(x) = x$ tenglamani qanoatlantirsa, u holda x nuqta $f: X \to X$ funksiyaning qo'zg'almas nuqtasi deyiladi. Agar x nuqta $f^p(x) = x$ tenglamani qanoatlantirsa, u holda x nuqta f funksiyaning p davrli davriy nuqtasi deyiladi. $f^p(x) = x$ tenglikni qanoatlantiruvchi eng kichik musbat p soniga x nuqtaning asosiy davri deyiladi.*

Barcha qo'zg'almas va p davrli davriy nuqtalar to'plamini mos ravishda $Fix(f)$ va $\mathrm{P}er_p(f)$ orqali belgilanadi.

Ushbu

$$x_k' = F_i(x_1, x_2, \dots, x_m),\ k = 1, 2, \dots, m, \qquad (2)$$

nochiziqli

$$F: x = (x_1, x_2, ..., x_m) \in \mathbb{R}^m \to x' = F(x) = (x_1', x_2', ..., x_m') \in \mathbb{R}^m$$

akslantirishni qaraylik, bu yerda $F_i: \mathbb{R}^m \to \mathbb{R},\ \ i = 1, \dots, m$ uzluksiz differensial-lanuvchi bir qiymatli fuksiyalardir.

F akslantirish mos J_F Yakobi matritsasining xos qiymatlari chiziqli bo'lmagan dinamik sistemaning lokal xarakterini aniqlaydi. Ushbu fikrni yanada aniqroq bayon qilamiz.

3**-ta'rif.** x^* *nuqta F akslantirishning qo'zg'almas nuqtasi bo'lsin.*

- *agar F akslantirishning x^* nuqtadagi Yakobi matritsasi J_F birlik aylanada xos qiymatlarga ega bo'lmasa x^* giperbolik nuqta deyiladi;*
- *agar $J_F(x^*)$ Yakobi matritsaning barcha xos qiymatlarining absolyut qiymati 1 dan kichik bo'lsa, x^* nuqtaga tortuvchi qo'zg'almas nuqta deyiladi;*
- *agar $J_F(x^*)$ Yakobi matritsaning barcha xos qiymatlarining absolyut qiymati 1 dan katta bo'lsa, x^* nuqtaga itaruvchi qo'zg'almas nuqta deyiladi;*
- *qolgan hollarda x^* egar nuqta deyiladi.*

Topologik qo'shma tushunchasi dinamik sistemalarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

4**-ta'rif.** *$f: U \to U$ va $g: V \to V$ akslantirishlar berilgan bo'lsin. Agar f va g akslantirishlar uchun shunday $h: U \to V$ gomeomorfizm topilib, $h \circ f = g \circ h$ tenglik bajarilsa, u holda f va g akslantirishlar topologik qo'shma deyiladi.*

$E = \{1, ..., m\}$ to'plamda

$$S^{m-1}=\{x=(x_1,...,x_m)\in\mathbb{R}^m : x_i\geq 0, \sum_{i=1}^{m} x_i=1\}. \tag{3}$$

kabi berilgan barcha ehtimollik o‘lchovlari to‘plamiga $(m-1)$ - o‘lchamli simpleks deyiladi.

5-ta’rif. *(3) simpleksni o‘ziga akslantiruvchi hamda*

$$W:\ x'_k=\sum_{i=1}^{m}\sum_{j=1}^{m} P_{ij,k}x_i x_j, \qquad k=1,...,m, \tag{4}$$

ko‘rinishda aniqlangan $W: S^{m-1}\to S^{m-1}$ *akslantirish kvadratik stoxastik operator (KSO) deyiladi, bu yerda* $P_{ij,k}$ *koeffisiyentlar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi*

$$P_{ij,k}\geq 0,\ P_{ij,k}=P_{ji,k},\ \sum_{k=1}^{m} P_{ij,k}=1, \quad (i,j,k=1,...,m). \tag{5}$$

Agar $z\in S^{m-1}$ populyatsiyaning hozirgi avlodni ifodalovchi har bir ehtimollik holati uchun $z'\in S^{m-1}$ kelgusi avlodni tasvirlab bersa, $z\to z'$, $W: S^{m-1}\to S^{m-1}$ evolyutsion operator deb ataladi.

Populyatsiyaning holatlari quyidagi diskret vaqtli dinamik sistema orqali tavsiflanadi

$$z,\ z^{(1)}=s'=W(z),\ z^{(2)}=W^2(z),\ z^{(3)}=W^3(z),... .$$

Berilgan W operatordan hosil qilingan dinamik sistema uchun asosiy masala ixtiyoriy $z^{(0)}\in S^{m-1}$ boshlang‘ich nuqtaning $\{z^{(n)}\}_{n=0}^{\infty}$ trayektoriyasi limit holatini tavsiflashdir.

Har qanday $a\in(0,1)$ uchun quyidagi belgilashni qilamiz:

$$S_a\equiv S_a^{2m-2}=\left\{z=(x_1,...,x_m,y_1,...,y_m)\in S: \sum_{i=1}^{m} x_i=a, \sum_{j=1}^{m} y_j=1-a\right\}.$$

Birinchi bobda ushbu

$$W_a: \begin{cases} x_k'=(1-a)^{-1}\sum_{i=1}^{m}\sum_{p=1}^{m}\theta_{ipk}x_i y_p, \\ y_k'=a^{-1}\sum_{i=1}^{m}\sum_{p=1}^{m}\theta_{ipk}x_i y_p. \end{cases} \tag{6}$$

evolyutsion operator $W_a: S_a\to S_a$ tomonidan hosil qilingan dinamik sistema tadqiq qilingan.

1-lemma. *Agar* $z=(x,y)\in S_a$ *nuqta* W_a *operatorning qo‘zg‘almas nuqtasi bo‘lsa, u holda* $y_k=\beta x_k$, $k=1,\dots,m$ *bo ‘ladi, bu yerda* $\beta=(1-a)/a$.

Ushbu lemma yordamida W_a operatorning qo‘zg‘almas nuqtalarini topish masalasi quyidagi sistemaning yechimiga keltiriladi

$$x_k=a^{-1}\sum_{i=1}^{m}\sum_{p=1}^{m}\theta_{ipk}x_i x_p,\ k=1,\dots,m. \tag{7}$$

2-lemma. *Agar* $z^{(0)}=(x_1^{(0)},\dots,x_m^{(0)},y_1^{(0)},\dots,y_m^{(0)})\in S_a$ *boshlang'ich nuqta va* $z^{(n)}=(x_1^{(n)},\dots,x_m^{(n)},y_1^{(n)},\dots,y_m^{(n)})=W_a^n(z^{(0)})$ *bo'lsa, u holda har qanday* $k=1,\dots,m,\ n\geq 1$ *uchun* $y_k^{(n)}=\beta x_k^{(n)}$ *bo'ladi.*

Umuman olganda, (7) sistemani yechish qiyin, shuning uchun $m=2$ holatni qarab chiqamiz. Bu holda $x_2=a-x_1$ tenglikdan foydalanib yechimlari

$$x_{1,1}=\frac{a}{2}\cdot\frac{2\theta_3-\theta_2+1+\sqrt{(\theta_2-1)^2+4\theta_3(1-\theta_1)}}{\theta_1+\theta_3-\theta},$$
$$x_{1,2}=\frac{a}{2}\cdot\frac{2\theta_3-\theta_2+1-\sqrt{(\theta_2-1)^2+4\theta_3(1-\theta_1)}}{\theta_1+\theta_3-\theta}, \tag{8}$$

bo'lgan to'rt parametrli kvadrat tenglamaga keltiriladi, bu yerda

$$\theta_1=\theta_{111},\ \theta_2=\theta_{121}+\theta_{211},\ \theta_3=\theta_{221}.$$

Shunday qilib parametrlar

$$(\theta_2-1)^2+4\theta_3(1-\theta_1)\geq 0 \tag{9}$$

shartni qanoatlantirsa, qo'zg'almas nuqtalar quyidagicha bo'ladi:

$$z_j=(x_{1,j},x_{2,j},y_{1,j},y_{2,j}),\ j=1,2,$$

bu yerda $x_{2,i}=a-x_{1,i}$ va $y_{i,j}=\beta x_{i,j}$.

S_a^2 to'plamdan olingan har qanday boshlang'ich $z^{(0)}=\left(x_1^{(0)},x_2^{(0)},y_1^{(0)},y_2^{(0)}\right)$ nuqta trayektoriyasining limit nuqtalarini tavsifi uchun quyidagi teorema o'rinli.

1-teorema. $z^{(0)}=\left(x_1^{(0)},x_2^{(0)},y_1^{(0)},y_2^{(0)}\right)\in S_a^2\setminus Fix(W_a)$ *ixtiyoriy boshlang'ich nuqta bo'lsin.*

1) *agar* $\theta_1+\theta_3=\theta_2$ *va* $\theta_1\neq 1,\theta_3\neq 0$ *yoki* $\theta_1\neq 0,\theta_3\neq 1$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W_a^{(n)}\left(z^{(0)}\right)=(x_1^*,a-x_1^*,\beta x_1^*,\beta(a-x_1^*)).$$

2) *agar* $\theta_1\neq\theta_2,\theta_1\in[0;1),\theta_2\in[0;1],\theta_3=0$ *yoki* $\theta_1=1,\theta_2\in[0;1),\theta_3=0$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W_a^{(n)}\left(z^{(0)}\right)=(0,a,0,1-a).$$

3) *agar* $\theta_1+\theta_3\neq\theta_2,\theta_1=1,\theta_2\in[1;2],\theta_3\in(0;1]$ *yoki* $\theta_1=1,\theta_2\in(1;2],\theta_3=0$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W_a^{(n)}\left(z^{(0)}\right)=(a,0,1-a,0).$$

4) *agar* $\theta_1+\theta_3\neq\theta_2,(\theta_2-1)^2+4\theta_3(1-\theta_1)\leq 4$ *va* $\theta_1\in(0;1),\theta_2\in[0;2],\theta_3\in(0;1]$ *yoki* $\theta_1=0,\theta_2\in[0;2],\theta_3\in(0;1)$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W_a^{(n)}\left(z^{(0)}\right)=(x_2^*,a-x_2^*,\beta x_2^*,\beta(a-x_2^*)).$$

5) *agar* $\theta_1=1,\theta_2\in[0;1),\theta_3\in(0;1)$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W_a^{(n)}\left(z^{(0)}\right)=(x_3^*,a-x_3^*,\beta x_3^*,\beta(a-x_3^*)).$$

6) *agar* $\theta_1 \in [0;1), \theta_2 \in (1;2], \theta_3 = 0$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} W_a^{(n)}\left(z^{(0)}\right) = (x_4^*, a - x_4^*, \beta x_4^*, \beta(a - x_4^*)).$$

7) *agar* $\theta_1 = 0, \theta_2 = 1, \theta_3 = 1$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} W_a^{(n)}\left(z^{(0)}\right) = \begin{cases} (x_1^{(0)}, a - x_1^{(0)}, \beta x_1^{(0)}, \beta(a - x_1^{(0)})), & agar \;\; n = 2k, \; k = 0,1,2,... \\ (a - x_1^{(0)}, x_1^{(0)}, \beta(a - x_1^{(0)}), \beta x_1^{(0)}), & agar \;\; n = 2k+1. \end{cases}$$

8) *Agar* $\theta_1 + \theta_3 \neq \theta_2, (\theta_2 - 1)^2 + 4\theta_3(1-\theta_1) > 4$ *va* $\theta_1 \in (0;1), \theta_2 \in [0;2], \theta_3 \in (0;1]$ *yoki* $\theta_1 = 0, \theta_2 \in [0;2], \theta_3 \in (0;1)$ *yoki* $\theta_1 = 0, \theta_2 \in [0;1) \cup (1;2], \theta_3 = 1$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} W_a^{(n)}\left(z^{(0)}\right) \subset \{\left(p_1, a - p_1, \beta p_1, \beta(a - p_1)\right), \left(p_2, a - p_2, \beta p_2, \beta(a - p_2)\right)\},$$

bu yerda

$$x_1^* = \frac{\theta_3 a}{\theta_3 - \theta_1 + 1}, \qquad x_2^* = \frac{a}{2} \cdot \frac{2\theta_3 - \theta_2 + 1 - \sqrt{(\theta_2 - 1)^2 + 4\theta_3(1-\theta_1)}}{\theta_1 + \theta_3 - \theta}, \qquad x_3^* = \frac{\theta_3 a}{\theta_3 - \theta_2 + 1},$$

$$x_4^* = \frac{(1-\theta_2)a}{\theta_1 - \theta_2}, \; p_{1,2} = \frac{2\theta_3 - \theta_2 - 1 \pm \sqrt{(\theta_2 - 1)^2 + 4\theta_3(1-\theta_1) - 4}}{2(\theta_1 + \theta_3 - \theta_2)} a.$$

Irsiyat koeffitsiyentlari θ_{ipk} quyidagi shartlarni qanoatlantirsin

$$\theta_{ipk} = \begin{cases} c_{ik}, & agar \;\; p = j, \\ 1, & agar \;\; p \neq j, k = l, \qquad j, l = 1, \ldots, m. \\ 0, & agar \;\; p \neq j, k \neq l, \end{cases}$$

bu yerda

$$c_{ik} = \begin{cases} 1, & i = k, \\ 0, & i \neq k. \end{cases}$$

U holda S_a^{2m-2} to'plamdan olingan har qanday boshlang'ich $z^{(0)}$ nuqta trayektoriyasining limit nuqtalarini tavsifi uchun quyidagi teorema o'rinli bo'ladi.

2-teorema. $z^{(0)} = \left(x_1^{(0)}, ..., x_m^{(0)}, y_1^{(0)}, ..., y_m^{(0)}\right) \in S_a^{2m-2}$ *ixtiyoriy boshlang'ich nuqta bo'lsin.*

1) *agar* $j = l$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} W^{(n)}\left(z^{(0)}\right) = \lim_{n\to\infty} z^{(n)} = (\underbrace{0,...,0,a}_{j}, \underbrace{0,...0}_{m-j}, \underbrace{0,...,0,1-a}_{j}, \underbrace{0,...,0}_{m-j}).$$

2) *agar* $j \neq l$ *bo'lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} W^{(n)}\left(z^{(0)}\right) = \lim_{n\to\infty} z^{(n)} = \begin{cases} z_{1,l} = (\underbrace{0,...,0,a}_{l}, \underbrace{0,...0}_{m-l}, \underbrace{0,...,0,1-a}_{l}, \underbrace{0,...,0}_{m-l}), & agar \;\; x_j^{(0)} \neq a, \\ z_{2,j} = (\underbrace{0,...,0,a}_{j}, \underbrace{0,...0}_{m-j}, \underbrace{0,...,0,1-a}_{j}, \underbrace{0,...,0}_{m-j}), & agar \;\; x_j^{(0)} = a. \end{cases}$$

Dissertatsiyaning **"Chivin populyatsiyasining diskret vaqtli dinamik sistemasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida ikki o'zgaruvchidan iborat beshta parametrli chivin populatsiyasi modeli tuzilgan hamda uning dinamikasi tavsiflangan.

Quyidagi $W:\mathbb{R}^2\to\mathbb{R}^2$ operatorni qaraylik:

$$\begin{cases} x'=\beta y-\dfrac{\alpha x}{1+x}-(d_0+d_1x)x+x, \\ y'=\dfrac{\alpha x}{1+x}-\mu y+y \end{cases} \tag{10}$$

bu yerda $\alpha>0,\beta>0,\mu>0,d_0\geq 0,d_1\geq 0.$

(10) orqali berilgan W operator $\mathbb{R}^2\setminus\{(x,y):x=-1\}$ to‘plamda korrekt aniqlangan, lekin uzluksiz operatorning dinamik sistemasini populyatsiya deb qaralgani uchun $x\geq 0$ va $y\geq 0$ deb olamiz. Shuning uchun W operatorning parametrlarini shunday tanlab olamizki, $W:\mathbb{R}^2_+\to\mathbb{R}^2_+$ o‘rinli bo‘lsin, bu yerda $\mathbb{R}^2_+=\{(x,y):x,y\in\mathbb{R},x\geq 0,y\geq 0\}$.

Faraz qilaylik $\beta=\mu,\ d_0=d_1=0$ va $S_1=\{(x,y):x,y\in\mathbb{R}_+,x+y=1\}$ bo‘lsin.

Ushbu $W\left(S_1\right)\subset S_1$ munosabatni qanoatlantiruvchi S_1 to‘plam W operatorga nisbatan invariant to‘plam deyiladi.

Har bir berilgan $c>0$ son uchun $S_c=\{(x,y)\in\mathbb{R}^2_+:\ x+y=c\}$ to‘plam (10) orqali berilgan W operatorga nisbatan invariant to‘plam bo‘ladi. Bundan tashqari barcha S_c to‘plamlar birlashmasi $\mathbb{R}^2_+$ to‘plamni hosil qiladi. Shuning uchun dinamik sistemani har bir berilgan $c>0$ son uchun S_c to‘plamda o‘rganish yetarli. W operatorning har bir berilgan $c>0$ son uchun S_c to‘plamdagi dinamikasi S_1 to‘plamdagi kabi bo‘ladi.

$\beta=\mu,\ d_0=d_1=0$ holat uchun S_1 to‘plamdan olingan har qanday boshlang‘ich $z^{(0)}$ nuqta trayektoriyasining limit nuqtalarini tavsifi uchun quyidagi teorema o‘rinli.

3-teorema. $z^{(0)}=\left(x^{(0)},1-x^{(0)}\right)\in S$ *ixtiyoriy boshlang‘ich nuqta bo‘lsin.*

1) *agar* $\left(\alpha,\beta\right)\in\left(A\cup B\right)\setminus\left\{\left(2;1\right)\right\}$ *bo‘lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W_0^n\left(z^{(0)}\right)=\left(\frac{\sqrt{\alpha^2+4\beta^2}-\alpha}{2\beta},\frac{2\beta+\alpha-\sqrt{\alpha^2+4\beta^2}}{2\beta}\right).$$

2) *agar* $\alpha=2,\beta=1$ *bo‘lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W_0^n\left(z^{(0)}\right)=\begin{cases}\left(x^{(0)},1-x^{(0)}\right), & agar\ \ n=2k,k=0,1,2,... \\ \left(\dfrac{1-x^{(0)}}{1+x^{(0)}},\dfrac{2x^{(0)}}{1+x^{(0)}}\right), & agar\ \ n=2k+1.\end{cases}$$

Faraz qilaylik $\beta\neq\mu,\ d_0=d_1=0$ bo‘lsin.

Agar

$$0<\alpha\leq 1,\ \beta>0,\ 0<\mu\leq 1 \tag{11}$$

bo‘lsa, u holda (10) orqali berilgan W operator $\mathbb{R}_{+}^{2}$ to‘plamni o‘zini o‘ziga o‘tkazadi.

4-teorema. *(10) orqali berilgan W operator ((11) shartlar ostida) va ixtiyoriy $(x^{(0)}, y^{(0)}) \in \mathbb{R}_{+}^{2} \setminus Fix(W)$ boshlang‘ich nuqta uchun quyidagilar o‘rinli:*

$$\lim_{n\to\infty} x^{(n)} = \begin{cases} 0, & agar \ \ \beta < \mu, \\ +\infty, & agar \ \ \beta > \mu, \end{cases}$$

$$\lim_{n\to\infty} y^{(n)} = \begin{cases} 0, & agar \ \ \beta < \mu, \\ \alpha / \mu, & agar \ \ \beta > \mu, \end{cases}$$

bu yerda $\left(x^{(n)}, y^{(n)}\right) = W^{n}\left(x^{(0)}, y^{(0)}\right)$.

Faraz qilaylik $d_0 \neq 0$ bo‘lsin.

1-tasdiq. *Agar*

$$\alpha > 0, \beta > 0, 0 < \mu \leq 1, d_0 > 0, \alpha + d_0 \leq 1, d_1 = 0 \tag{12}$$

bo‘lsa, u holda (10) orqali berilgan W operator $\mathbb{R}_{+}^{2}$ to‘plamni o‘zini o‘ziga o‘tkazadi.

2-tasdiq. *(10) orqali berilgan W operator qo‘zg‘almas nuqtalari va ularning tipi quyidagicha:*

1) *agar* $\beta \leq \mu\left(1 + \dfrac{d_0}{\alpha}\right)$ *bo‘lsa, u holda (10) operator ((12) shartlar ostida) yagona* $(0,0)$ *qo‘zg‘almas nuqtaga ega va*

$$(0,0) - \begin{cases} tortuvchi, & agar \ \ \beta < \mu\left(1 + \dfrac{d_0}{\alpha}\right), \\ nogiperbolik, & agar \ \ \beta = \mu\left(1 + \dfrac{d_0}{\alpha}\right). \end{cases}$$

2) *agar* $\beta > \mu\left(1 + \dfrac{d_0}{\alpha}\right)$ *bo‘lsa, u holda (10) operator ikkita* $(0,0)$ *va* (x^{*}, y^{*}) *qo‘zg‘almas nuqtalarga ega, shuningdek* (x^{*}, y^{*}) *qo‘zg‘almas nuqta toryuvchi va*

$$(0,0) - \begin{cases} itaruvchi, & agar \ \ \beta > \mu\left(1 + \dfrac{d_0}{\alpha}\right) + \alpha^{*}, \\ egar, & agar \ \ \mu\left(1 + \dfrac{d_0}{\alpha}\right) < \beta < \mu\left(1 + \dfrac{d_0}{\alpha}\right) + \alpha^{*}, \\ nogiperbolik, & agar \ \ \beta = \mu\left(1 + \dfrac{d_0}{\alpha}\right) + \alpha^{*}, \end{cases}$$

bu yerda $\alpha^{*} = \left(4 - 2(\alpha + \mu + d_0)\right) / \alpha$.

5-teorema. *$p \geq 2$ holatlar uchun (10) orqali berilgan W operator ((12) shartlar ostida) $\mathbb{R}_{+}^{2}$ to‘plamda p-davrli davriy nuqtalarga ega emas.*

Ushbu

$$\Omega = \left\{ (x, y) \in \mathbb{R}_+^2,\ 0 \le x \le \frac{\alpha\beta}{\mu d_0},\ 0 \le y \le \frac{\alpha}{\mu} \right\}$$

to‘plamni qaraylik. Ω to‘plamni quyidagicha to‘rtta qismga ajratamiz:

$$\Omega_1 = \left\{ (x, y) \in \Omega,\ 0 \le x \le x^*,\ 0 \le y \le y^* \right\},$$

$$\Omega_2 = \left\{ (x, y) \in \Omega,\ x^* \le x \le \frac{\alpha\beta}{\mu d_0},\ y^* \le y \le \frac{\alpha}{\mu} \right\},$$

$$\Omega_3 = \left\{ (x, y) \in \Omega,\ x^* < x \le \frac{\alpha\beta}{\mu d_0},\ 0 \le y \le y^* \right\},$$

$$\Omega_4 = \left\{ (x, y) \in \Omega,\ 0 \le x < x^*,\ y^* < y \le \frac{\alpha}{\mu} \right\},$$

bu yerda

$$x^* = \frac{\alpha(\beta - \mu)}{\mu d_0} - 1,\ y^* = \frac{\alpha(\beta - \mu) - \mu d_0}{\mu(\beta - \mu)}. \tag{13}$$

3-tasdiq. Ω_1, Ω_2 *va* Ω *to‘plamlar* W *operatorga nisbatan invariant to‘plamlardir.*

4-tasdiq. *Parametrlar* β, μ *((12) shartlar ostida)ning har qanday qiymatida*

$$\varphi(z) = \mu x + \beta y$$

funksiya W *operator uchun Lyapunov funksiyasi bo‘ladi.*

1-Izoh. *Agar* $\beta \le \mu\left(1 + \frac{d_0}{\alpha}\right)$ *bo‘lsa, u holda* $\varphi(z)$ *Lyapunov funksiyasi* Ω *to‘plamda aniqlanadi, agar* $\beta > \mu\left(1 + \frac{d_0}{\alpha}\right)$ *bo‘lsa, u holda* $\varphi(z)$ *Lyapunov funksiyasi* $\Omega_1 \cup \Omega_2$ *to‘plamda aniqlanadi.*

6-teorema. *(10) orqali berilgan* W *operator ((12) shartlar ostida) va ixtiyoriy* $(x^{(0)}, y^{(0)}) \in \mathbb{R}_+^2 \setminus Fix(W)$ *boshlang‘ich nuqta uchun quyidagilar o‘rinli:*

1) *agar har qanday* n *natural sonlar uchun* $y^{(n)} > \frac{\alpha}{\mu}$ *bo‘lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty} x^{(n)} = +\infty,\ \lim_{n\to\infty} y^{(n)} = \frac{\alpha}{\mu};$$

2) *agar shunday* n_0 *natural son topilib* $y^{(n_0)} \le \frac{\alpha}{\mu}$ *bo ‘lib* $\beta \le \mu\left(1 + \frac{d_0}{\alpha}\right)$ *bo‘lsa, u holda* $\lim_{n\to\infty} x^{(n)} = 0, \lim_{n\to\infty} y^{(n)} = 0,$

boshqa hollarda, ya’ni agar $\beta > \mu\left(1 + \frac{d_0}{\alpha}\right)$ *bo‘lsa, u holda* $\lim_{n\to\infty} x^{(n)} = x^*, \lim_{n\to\infty} y^{(n)} = y^*.$

Dissertatsiyaning **“Chivin populyatsiyasi modeli tomonidan hosil qilingan normallangan operatorning dinamikasi va epidemik modellar”** deb nomlangan uchinchi bobida, normallangan operator hosil qilgan dinamik sistema tadqiq qilingan. Bundan tashqari kasallikning tarqalishining SIS (susceptible-infected-susceptible) va SIR (susceptible-infected-recovered) modeli bilan bog‘liq diskret vaqtli dinamik sistemalar o‘rganilgan.

Quyidagi (10) orqali berilgan W operatorning ((12) shartlar ostida) normallashtirilgan ko‘rinishini qaraylik:

$$U:\begin{cases} x'=\dfrac{(\beta y+(1-d_0)x)(1+x)-\alpha x}{(1+x)((\beta-\mu+1)y+(1-d_0)x)}, \\ y'=\dfrac{\alpha x+(1+x)(1-\mu)y}{(1+x)((\beta-\mu+1)y+(1-d_0)x)}. \end{cases} \tag{14}$$

(10) shartlardan $x'\geq 0$ va $y'\geq 0$ bo‘ladi, bundan tashqari $x'+y'=1$. Shuning uchun $U:S_1\to S_1$.

5-tasdiq. *(14) orqali berilgan U operator yagona $z^*=\left(x^*,1-x^*\right)$ tortuvchi qo‘zg‘almas nuqtaga ega,*
bu yerda

$$x^*=\begin{cases} \dfrac{\sqrt{\alpha^2+4\beta^2}-\alpha}{2\beta}, & agar\ \beta+d_0=\mu, \\ \dfrac{\sigma(\beta^2-3(\alpha-\mu+\beta+d_0)(\mu-\beta-d_0))+1/\sigma-\beta}{3(\mu-\beta-d_0)}, & agar\ \beta+d_0\neq\mu, \end{cases}$$

$$\sigma=\sqrt[3]{2/(9\beta e(\alpha+2e)-2\beta^3+\sqrt{4(-\beta^2+3e(\alpha-e))^3+(9\beta e(\alpha+2e)-2\beta^3)^2})},$$
$$e=\mu-\beta-d_0.$$

7-teorema. *$p\geq 2$ holatlar uchun (14) orqali berilgan U operator S_1 to‘plamda p-davrli davriy nuqtalarga ega emas.*

S_1 to‘plamdan olingan har qanday boshlang‘ich $z^{(0)}$ nuqta trayektoriyasining limit nuqtalarini tavsifi uchun quyidagi teorema o‘rinli.

8-teorema. *(14) orqali berilgan U operator ((12) shartlar ostida) va ixtiyoriy $z^{(0)}=\left(x^{(0)},y^{(0)}\right)\in S_1\setminus Fix(U)$ boshlang‘ich nuqta uchun quyidagilar o‘rinli:*

$$\lim_{n\to\infty}U^n\left(z^{(0)}\right)=\begin{cases} \left(\tilde{x},1-\tilde{x}\right), & agar\ \ \mu=\beta+d_0, \\ \left(\hat{x},1-\hat{x}\right), & agar\ \ \mu\neq\beta+d_0, \end{cases}$$

bu yerda

$$\tilde{x}=\frac{\sqrt{\alpha^2+4\beta^2}-\alpha}{2\beta},\quad \hat{x}=\frac{\sigma(\beta^2-3(\alpha-\mu+\beta+d_0)(\mu-\beta-d_0))+1/\sigma-\beta}{3(\mu-\beta-d_0)}$$

qo‘zg‘almas nuqtalar.

Uchinchi bobning so‘nggi paragrafida epidemik SIS modelining quyidagi diskret ko‘rinishi uchun qo‘zg‘almas nuqtalar, ularning turlari, har qanday boshlang‘ich nuqta trayektoriyasining limit nuqtalarini tavsifi masalalari qaralgan:

$$\begin{cases} S'=S-\beta SI+\nu I, \\ I'=I+\beta SI-\nu I. \end{cases} \tag{15}$$

bu yerda $\beta > 0, \nu > 0$.

Ushbu $S' + I' = S + I = N$ tenglikdan foydalanib (15) sistemani quyidagicha yozish mumkin.

$$f(I) = I(1-\nu+\beta N) - \beta I^2 \tag{16}$$

Quyidagilarni belgilaymiz.

$$\Omega = [0;N],\ R_0 = \frac{\beta N}{\nu},$$

$$\Theta = \left\{ (\beta,\nu) \in \mathbb{R}^2 : \nu \in (0;1], \beta \in \left(0; \frac{(1+\sqrt{\nu})^2}{N} \right] \right\},$$

$$\Theta^* = \left\{ (\beta,\nu) \in \mathbb{R}^2 : \nu \in \left(\frac{1}{4};1 \right], \beta \in \left(\frac{2+\nu}{N}; \frac{(1+\sqrt{\nu})^2}{N} \right] \right\}.$$

9-teorema. *$I^{(0)} \in \Omega \setminus Fix(f)$ ixtiyoriy boshlang'ich nuqta bo'lsin. $\Theta \setminus \Theta^*$ to'plamdagi shartlar ostida (16) orqali berilgan f funksiya uchun quyidagilar o'rinli:*

$$\lim_{n\to\infty} f^n(I^{(0)}) = \begin{cases} 0, & agar\ \ R_0 \le 1, \\ \dfrac{\beta N - \nu}{\beta}, & agar\ \ R_0 > 1. \end{cases}$$

XULOSA

Dissertatsiya evolyutsion operatorlardan hosil qilingan dinamik sistemalarni tavsiflashga bag'ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Ikki o'lchamli kvadratik operator yordamida boshqariladigan jinsga bog'liq evolyutsion operatorining diskret vaqtli dinamikasi to'liq tadqiq qilingan.
2. Parametrlarning ba'zi shatlarida yuqori o'lchamli evolyutsion operator uchun barcha trayektoriyalarning limit nuqtalar to'plami tavsiflangan.
3. Yovvoyi chivin populyatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan modelning diskret vaqtli dinamik sistemasi uchun evolyutsion operatorining barcha qo'zg'almas nuqtalarini (besh parametrga bog'liq) topilgan va parametrlarga qarab ushbu operator bitta, ikkita qo'zg'almas nuqtalarga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatilgan va ularni tipi aniqlangan.
4. Parametrlarning alohida holatlari uchun mos keladigan modelning diskret vaqtli dinamikasi regulyar ekanligi isbotlangan.
5. Sog'lom, kasallangan va tuzalganlarni aks ettiruvchi epidemik modellar uchun diskret vaqtli dinamika o'rganilgan va uning Covid-19 virusi tarqalishiga qo'llanishi ko'rsatilgan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

BOXONOV ZAFAR SAYDIMAXMUDOVICH

DYNAMICAL SYSTEMS OF RATIONAL MAPPINGS IN BIOLOGY

01.01.01-Mathematical analysis

ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2023

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the of Ministers of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2023.3.PhD/FM907.

Thesis has been prepared at Institute of Mathematics.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz/.

Scientific supervisor:	**Rozikov Utkir Abdulloevich** doctor of physical and mathematical sciences, professor
Official opponents:	**Abdullayev Rustambay Zayirovich** doctor of physical and mathematical sciences, professor
	Absalamov Akmal Tolliboyevich doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences
Leading organization:	**National University of Uzbekistan**

Defense will take place 26 December 2023 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (is registered №173). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the thesis sent out on 7 December 2023 year
(Mailing report № 2 on 7 December 2023 year)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

A.A. Azamov
Deputy Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

U.U. Jamilov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the dissertation. In the world, numerous scientific and applied research works are reduced to the study of dynamical systems of rational operators. The importance of the theory of dynamical systems is to describe the future state of the system from its current state, and it plays an important role in solving problems of mechanics, physics, biology, medicine, economics and others. This helps people to understand complex systems and make optimal decisions. It should be noted that dynamical systems are usually represented by difference equations, differential equations, and differential-difference equations. Dynamical systems of rational evolution operators are one of the main objects of research in the fields of biology and ecology. Also, results related to dynamical systems generated from rational evolutionary operators serve as a basis for researching population evolution in mathematical biology issues. Therefore, the research of dynamical systems of rational operators remains one of the important and urgent tasks in the theory of dynamical systems.

Currently, the theory of rational dynamical systems is used as the main tool in understanding the nature of many practical problems, analyzing them and finding the optimal solution. In the theory of dynamical systems, problems describing the set of limit points of the trajectory, determining the existence of fixed and periodic points and their types, finding invariant sets, checking the occurrence of bifurcations, and studying whether the system is stable or chaotic are widely used in analysis of many practical issues. In this regard, the creation of optimal mathematical models based on in-depth biological research and their application to population problems of mathematical biology are targeted scientific studies.

